

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 747,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,3 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 49,7 foiz), sanoat – 107,5 foiz (14,0 foiz), qurilish – 106,0 foiz (6,1 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 111,3 foiz (6,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 109,3 foiz (3,7 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,4 foiz (20,4 foiz)ni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash, axborot va aloqa




Boshqa xizmat tarmoqlari




YAHM deflyator indeksi 2022 yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi.

(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 12 885,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga o'sdi.

2022 yilning yanvar-sentabrida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





2022 yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi

	Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021 yil	2022 yil	
I. YAHM	16 012,7	18 747,6	104,6
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 635,6	18 277,3	104,5
 Mahsulotlarga sof soliqlar	377,1	470,3	109,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 635,6	18 277,3	104,5
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 215,2	9 087,4	103,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 830,4	3 680,5	107,0
 sanoat	1 819,9	2 565,0	107,5
 qurilish	1 010,5	1 115,5	106,0
Xizmatlar	4 590,0	5 509,4	105,0
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	890,8	1 113,3	111,3
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	590,9	678,5	109,3
 boshqa xizmat tarmoqlari	3 108,3	3 717,6	102,4

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2022 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



		2021 yil	2022 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,6	97,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,4	2,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	52,5	49,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,1	20,1
	sanoat	11,6	14,0
	qurilish	6,5	6,1
	Xizmatlar	29,4	30,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,7	6,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,8	3,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,9	20,4

2022 yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 49,7 foizni, sanoat tarmogʻi 14,0 foizni, qurilish 6,1 foizni va xizmatlar sohasi 30,2 foizni tashkil qildi.




**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



● Yalpi qoʻshilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)


2021 yil yanvar-sentabr

2022 yil yanvar-sentabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2022 yil yanvar-sentabr oylarida – 6,1 foizni (2021 yil yanvar –sentabrda – 5,7 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,7 foizni (3,8 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,4 foizni (19,9 foiz) tashkil etdi.



2022 yil yanvar-sentabrda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)

2022 yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 79,4 foizni tashkil qildi (2021 yil yanvar-sentabrda – 81,1 foiz).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'li.

2021 yil yanvar-sentabr

81,1 %

2022 yil yanvar-sentabr

79,4 %